

“LIME TIME” RAG‘BATLANTIRUVCHI TADBIRINI (AKSIYASINI) O‘TKAZISH QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “LIME TIME” Rag‘batlantiruvchi Tadbiri (Aksiya) “Beeline” brendiga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda “hambi” mobil ilovasidan foydalanishni oshirish maqsadida o‘tkaziladi.

Ishtirokchilar Rag‘batlantiruvchi Tadbirda ishtirok etish orqali ushbu qoidalar (keyingi o‘rinlarda – “Qoidalar”) to‘liq rozilik bildiradilar.

Ushbu Tadbir O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi “Reklama to‘g‘risida”gi O‘RQ-776-sonli Qonunining 21-moddasiga muvofiq Rag‘batlantiruvchi Tadbir sifatida tasniflanadi va O‘zbekiston Respublikasining lotereyalar to‘g‘risidagi qonunchiligiga ko‘ra lotereya hisoblanmaydi, sababi:

- pullik sessiyalar uchun kafolatlangan sovrinlar taqdim etiladi (telekom-paketlar)
- o‘yin natijasi ishtirokchining mahoratiga bog‘liq (nishonga olish)
- asosiy sovrin mexanizmida tasodifiylik elementi mavjud emas

1.2. Mazkur Qoidalarining asosiy tushunchalari va atamalari:

Tashkilotchi: “Unitel” MChJ (Beeline brendi) [0611@beeline.uz, +998 (90) 185-00-55]

Shaxsiy ma’lumotlar operatori: “Unitel” MChJ (Beeline brendi)

Qoidalar — ushbu Aksiya qoidalari.

Internet-paketlar — Beeline abonentining hisobiga taqdim etiladigan va amal qilish muddati cheklangan mobil internet-trafik paketlari. Abonent ushbu internet-paketlardan Beeline tarmog‘i orqali Internetga kirish uchun foydalanish huquqiga ega.

Promokod — harflar va raqamlardan iborat belgilar to‘plami bo‘lib, Ishtirokchiga ushbu Qoidalar muvofiq belgilangan maxsus shartlar asosida chegirma olish yoki hamkorlarning xizmatlaridan foydalanish huquqini beradi.

Ilova — hambi mobil ilovasi

Maxsus Aksiya sahifasi

Ru: <https://beeline.uz/ru/events/actions/lime-time-zima>

Uz: <https://beeline.uz/uz/events/actions/lime-time-zima>

Aksiya o‘tkaziladigan hudud — O‘zbekiston Respublikasi

Ishtirokchi(-lar) — 18 yoshga to‘lgan, muomalaga layoqatli, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat qiluvchi chet el fuqarosi bo‘lgan, hambi mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan va ushbu Qoidalar muvofiq Aksiyada ishtirok etish uchun zarur harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxslar.

1.3. Aksiya o'tkazilish muddati:

- **Aksiya o'tkazilish muddati**, jumladan ishtirokchilar tomonidan sovrinlarni faollashtirish muddati: 2025-yil 1-dekabrda 2025-yil 9-yanvargacha.
- O'yinda ishtirok etish uchun **zarur harakatlarni bajarish muddati**: 2025-yil 1-dekabrda 2025-yil 9-yanvargacha.
- Qimmatbaho sovrinlar **o'yinini kunlik o'tkazilish muddati**: Aksiya o'tkaziladigan davr mobaynida kalendarga muvofiq har kuni.
- **Ishtirokchilar tomonidan sovrinlarni faollashtirish muddati**: 2025-yil 9-yanvargacha.

Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha harakatlar Ishtirokchilar tomonidan bajarilishi va Tashkilotchi tomonidan Toshkent vaqti bilan qayd etilishi lozim.

1.4. Rag'batlantiruvchi Tadbir Ishtirokchilarini xabardor qilish usullari.

Rag'batlantiruvchi Tadbiri Ishtirokchilari Rag'batlantirish Tadbirini o'tkazish qoidalari va muddatlari to'g'risida internet tarmog'ida, www.beeline.uz saytida va hambi mobil ilovasida axborot joylashtirish orqali xabardor qilinadilar.

2. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

2.1. Rag'batlantiruvchi Tadbirda Ishtirok etish uchun ruxsat.

Qoidalarining ushbu bo'limida nazarda tutilgan zarur harakatlar hambi mobil ilovasining "LIME TIME" o'yinlar bo'limida amalga oshirilishi lozim.

Aksiyada hambi mobil ilovasida ro'yxatdan o'tgan barcha foydalanuvchilar ishtirok etishlari mumkin, "Welcome", "Hello" va "Bolajon" tarif rejalarida xizmat ko'rsatiladigan Beeline abonentlari bundan mustasno.

Aksiyada ishtirok etish uchun hambi ilovasini o'rnatish, ro'yxatdan o'tish va "LIME TIME" o'yinlar bo'limiga o'tish kerak.

01.12.2025 dan 09.01.2026 gacha bo'lgan davrda Ishtirokchi quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- "LIME-TIME" mini-o'yinini o'ynash (kuniga 3 ta bepul sessiya)
- Qo'shimcha o'yin sessiyalarini 1 000 so'm evaziga xarid qilish (faqat Beeline abonentlari uchun)
- Bosqichlar tizimida ishtirok etish va sovrinlarni olish
- Kunlik qimmatbaho sovrinlar o'yinlarida ishtirok etish.

O'yin mexanikasi:

- O'yin maydoni: 3×3 katak (9 katakli)
- Sessiya davomiyligi: 60 soniya
- Obyektlarning namoyon bo'lishi: har 2 soniyada
- Har bir to'g'ri nishon uchun ballar: 50 ball
- Bosqichlar tizimi: Boshlang'ich → Kumush → Oltin → Afsonaviy

Ushbu Qoidalarga muvofiq zarur o‘yin harakatlarini amalga oshirgan taqdirda, Ishtirokchi quyidagi sovrinlarni qo‘lga kiritish imkoniyatiga ega:

2.1.1. Pullik sessiyalar uchun kafolatlangan sovrinlar:

- Internet-paketlar: 100 MB, 500 MB, 1 000 MB (pullik sessiya uchun 1 ta sovrin taqdim etiladi)
- Amal qilish muddati: faollashtirilgan kundan boshlab 7 kun

2.1.2. Bosqichlar bo‘yicha sovrinlar:

“Kumush” bosqich (1 100 ball to‘planganda):

- Turli hajmdagi internet-paketlar
- Chegirmali tariflar
- Hamkorlar promokodlari

“Oltin” bosqich (2 200 ball to‘planganda):

- Kengaytirilgan internet-paketlar
- Maxsus tariflar
- Hamkorlar xizmatlariga promokodlar
- Chegirmali Mi-Fi routerlar

“Afsonaviy” bosqich (3 600 ball to‘planganda):

- Premium internet-paketlari
- Eksklyuziv tariflar
- Qimmatbaho sovrinlar o‘yinida ishtirok etish

2.1.3. Qimmatbaho sovrinlar (kunlik yutuqli o‘yinlar):

- iPhone 14 PRO MAX smartfonlari
- Suvenir mahsulotlari (Yandex kolonkalari)
- Bepul Mi-Fi routerlar

2.2. Sessiyalar tizimi:

- **Bepul sessiyalar:** hambi ilovasining barcha foydalanuvchilari uchun kuniga 3 ta (soat 00:00 da yangilanadi)
- **Pullik sessiyalar:** faqat Beeline abonentlari uchun har bir sessiya narxi 1 000 so‘m (kuniga 12 tagacha sessiya)
- **Kunlik maksimal sessiyalar soni:** 15 ta (3 ta bepul + 12 ta pullik Beeline abonentlari uchun)

Pullik sessiyalarga kirishni cheklash telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishning texnik xususiyatlari va litsenziyalash qonunchiligi talablari bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sovrinlar telekommunikatsiya xizmatlari (internet-paketlar, tariflar) hisoblanadi

- telekommunikatsiya faoliyati litsenziyasiga ko'ra, "Unitel" MChJ faqat o'z abonentlariga xizmat ko'rsatishga haqli
- boshqa operator raqamlariga telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etishning texnik imkoni yo'qligi
- operatorlararo o'zaro hamkorlik va billing tizimlari talablariga rioya etilishi.

2.3. Tashkilotchining huquq va cheklavlari

Tashkilotchi quyidagi hollarda Ishtirokchilarning harakatlarini haqiqiy emas deb topishga va Ishtirokchilarni Aksiyada keyingi ishtirokdan chetlashtirish huquqiga ega:

- Ishtirokchi tomonidan noto'g'ri, to'liq bo'lmagan, xato yoki noaniq ma'lumotlar taqdim etilganida
- firibgarlik harakatlari yoki noqonuniy ustunlikka erishish uchun texnik vositalardan foydalanilganda
- ushbu Qoidalar buzilganda
- dasturiy vositalar, botlar yoki ishtirok etishning boshqa avtomatlashtirilgan usullaridan foydalanilganda
- Tashkilotchining tizimlariga buzib kirish yoki ruxsatsiz kirishga urinishlarda

Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

- Ishtirokchi tomonidan nohaq yo'l bilan olingan sovrinlarni taqdim etmaslik va/yoki bekor qilish
- g'irrom yo'l bilan olingan o'yin resurslarining miqdori yoki xususiyatlarini o'zgartirish
- ushbu Qoidalarni buzganligiga asosli shubha qilingan har qanday shaxsning Rag'batlantiruvchi Tadbirda keyingi ishtirokini taqiqlash

2.4. Rag'batlantiruvchi Tadbirda kunlik qimmatbaho sovrinlar o'yinlarida ishtirok etishga quyidagilar yo'l qo'yilmaydi:

- Ushbu Qoidalarining 2.1-bandida belgilangan talablarga javob bermaydigan jismoniy shaxslar;
- Tashkilotchi xodimlari va Tashkilotchi manfaatlarini ifodalaydigan shaxslar, shuningdek ularning oila a'zolari.
- Tashkilotchi bilan belgilangan tartibda affillangan deb e'tirof etilgan shaxslar.
- Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo'lgan hamda Rag'batlantiruvchi Tadbirni tashkil etish va/yoki o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan uchinchi tomonlarning xodimlari va vakillari.

2.5. Ishtirokchilarning huquqlari:

Ishtirokchilar, xususan, quyidagi huquqlarga ega:

- Ushbu Qoidalariga muvofiq Rag'batlantiruvchi Tadbir haqida ma'lumot olish huquqi.
- Ushbu Qoidalariga muvofiq Aksiyaning barcha shartlarini bajargan taqdirda, sovrinlarni olish huquqi.
- Tashkilotchining qarorlari ustidan yozma murojaat yuborish orqali shikoyat qilish huquqi.
- Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

2.6. Ishtirokchilarning majburiyatlari:

- Rag‘batlantiruvchi Tadbirini o‘tkazish davomida ushbu Qoidalarga amal qilish.
- Ushbu Qoidalarga muvofiq o‘ziga doir ishonchli ma’lumotlarni Tashkilotchiga taqdim etish.
- Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

3. SOVRIN JAMG‘ARMASI VA SOVRINLARNI FAOLLASHTIRISH

3.1. Sovrin jamg‘armasi

Rag‘batlantiruvchi Tadbirning sovrin jamg‘armasi Tashkilotchining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi, alohida tartibda tuziladi va faqatgina Rag‘batlantiruvchi Tadbir Ishtirokchilariga Sovrinlar taqdim etish uchun foydalaniladi.

3.2. Sovrin toifalari:

Internet-paketlar:

- 100 MB, 500 MB, 1000 MB (pullik sessiyalar uchun kafolatlangan)
- Bosqichlar bo‘yicha maxsus paketlar

Tariflar va xizmatlar:

- Chegirmali tariflar
- Beepul maxsus limitlari
- Qo‘shimcha xizmat paketlari

Hamkorlar promokodlari:

- Eda.Yandex — (Birinchi 3 ta ovqat buyurtmasiga 30 000 so‘m chegirma)
- Yandex.Plus — (Yangi foydalanuvchilar uchun 60 kunlik Yandex Plus obunasi)
- Yandex.Praktikum — (Yandex Praktikum kurslarini xarid qilishda 7% chegirma (ingliz tili kurslaridan tashqari))
- EuroAsia sug‘urta xizmati — (KACKO mahsuloti uchun 24 soat davomida 25% chegirma)
- Prestige Club sayohat xizmati — (Turlarga 5% chegirma)

Moddiy sovrinlar:

- Mi-Fi routerlar
- iPhone 14 PRO MAX smartfonlari
- Yandex kolonkalari

3.3. Sovrinlarni faollashtirish usullari va shartlari:

- Ishtirokchi taqdim etilgan sovrinlarni hambi ilovasining “Mening sovrinlarim” bo‘limi orqali faollashtirish huquqiga ega
- Internet-paketlar va tariflar “Faollashtirish” tugmasi bosilishi bilan darhol faollashadi
- Promokodlar hamkorlar saytlarida nusxalash va foydalanish uchun taqdim etiladi
- Moddiy sovrinlar qabul qilinganligini tasdiqlash va tegishli hujjatlarni taqdim etishni talab qiladi

3.4. Faollashtirish muddatlari:

- **Tariflar:** 2026-yil 9-yanvargacha faollashtirish
- **Promokodlar:** hamkorlarning shartlariga muvofiq
- **Moddiy sovrinlar:** G‘olib tomonidan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 90 kun ichida olish

4. KUNLIK QIMMATBAHO SOVRINLAR O‘YINLARI

4.1. O‘yinlarda ishtirok etish tizimi:

Afsonaviy bosqichga yetgan ishtirokchilar aksiya kalendariga muvofiq kunlik qimmatbaho sovrinlar o‘yinlarida avtomatik tarzda ishtirok etadilar.

4.2. Qimmatbaho sovrinlar o‘yinlari jadvali:

01-dekabr (Dushanba) — **iPhone 14 Pro Max**
02-dekabr (Seshanba) — **Yandex Mini kolonka**
03-dekabr (Chorshanba) — **Yandex Mini kolonka**
04-dekabr (Payshanba) — **MI-FI ROUTER**
05-dekabr (Juma) — **Yandex Mini kolonka**
06-dekabr (Shanba) — **MI-FI ROUTER**
07-dekabr (Yakshanba) — **iPhone 14 Pro Max**
08-dekabr (Dushanba) — **Yandex Mini kolonka**
09-dekabr (Seshanba) — **MI-FI ROUTER**
10-dekabr (Chorshanba) — **Yandex Mini kolonka**
11-dekabr (Payshanba) — **MI-FI ROUTER**
12-dekabr (Juma) — **Yandex Mini kolonka**
13-dekabr (Shanba) — **iPhone 14 Pro Max**
14-dekabr (Yakshanba) — **MI-FI ROUTER**
15-dekabr (Dushanba) — **Yandex Mini kolonka**
16-dekabr (Seshanba) — **MI-FI ROUTER**
17-dekabr (Chorshanba) — **Yandex Mini kolonka**
18-dekabr (Payshanba) — **MI-FI ROUTER**
19-dekabr (Juma) — **iPhone 14 Pro Max**
20-dekabr (Shanba) — **Yandex Mini kolonka**
21-dekabr (Yakshanba) — **MI-FI ROUTER**
22-dekabr (Dushanba) — **Yandex Mini kolonka**
23-dekabr (Seshanba) — **MI-FI ROUTER**
24-dekabr (Chorshanba) — **Yandex Mini kolonka**
25-dekabr (Payshanba) — **iPhone 14 Pro Max**
26-dekabr (Juma) — **Yandex Mini kolonka**
27-dekabr (Shanba) — **MI-FI ROUTER**
28-dekabr (Yakshanba) — **Yandex Mini kolonka**
29-dekabr (Dushanba) — **MI-FI ROUTER**
30-dekabr (Seshanba) — **Yandex Mini kolonka**
31-dekabr (Chorshanba) — **iPhone 14 Pro Max**

01-yanvar (Payshanba) — **iPhone 14 Pro Max**
02-yanvar (Juma) — **Yandex Mini kolonka**
03-yanvar (Shanba) — **MI-FI ROUTER**
04-yanvar (Yakshanba) — **Yandex Mini kolonka**
05-yanvar (Dushanba) — **iPhone 14 Pro Max**
06-yanvar (Seshanba) — **MI-FI ROUTER**
07-yanvar (Chorshanba) — **Yandex Mini kolonka**

08-yanvar (Payshanba) — **Yandex Mini kolonka**

09-yanvar (Juma) — **iPhone 14 Pro Max**

4.3. O'yin mexanizmi:

- O'yin o'tkazilish vaqtiga qadar Afsonaviy bosqichdan o'tgan ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlov.
- O'yin har kuni avtomatik tarzda o'tkaziladi.
- G'oliblar hambi ilovasidagi push-bildirishnomalar orqali xabardor qilinadi.

5. CHEKLOVLAR

5.1. Miqdor cheklovlari:

- Har bir ishtirokchi uchun kuniga maksimal 15 ta o'yin sessiyasi (shundan, barcha uchun 3 ta bepul, faqat Beeline abonentlari uchun 12 ta pullik)
- Moddiy sovrinlar: butun aksiya davomida har bir ishtirokchiga 1 dona
- Hamkorlar promokodlari: faqat telefon raqamlari ro'yxati asosida
- Ba'zi sovrinlar faqat hamkor xizmatlarining yangi foydalanuvchilari uchun mavjud

6. MODDIY SOVRINLARNI Olish UCHUN HUJJAT VA MA'LUMOTLAR

6.1. Moddiy sovrinlarni olish uchun Ishtirokchi 7 (yetti) kalendar kuni ichida quyidagi hujjatlarning asl nusxalari va ma'lumotlarni taqdim etishi shart:

- G'olibning pasporti yoki ID-kartasi;
- Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasida JShShIR raqami bo'lmagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limidan (pasport bo'limi) JShShIR ni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma.

Agar G'olib biron-bir sababga ko'ra Sovrinni topshirish jarayonida shaxsan ishtirok eta olmasa, Sovrinni olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etish uchun boshqa shaxsga (ishonchli vakilga) tegishli ishonchnoma rasmiylashtirib berishi mumkin.

Bu holda, ishonchli vakil quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- G'olibning pasporti yoki ID-kartasidan nusxa;
- Sovrinni olish va sovrinni G'olib nomiga rasmiylashtirish bilan bog'liq hujjatlarni imzolash huquqini beruvchi notarial tasdiqlangan ishonchnoma;
- Ishonchli vakilning pasporti yoki ID-kartasi;
- Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasida JShShIR raqami bo'lmagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limidan (pasport bo'limi) JShShIR ni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma.

6.2. Tashkilotchi belgilangan muddatda zarur hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Ishtirokchiga sovrinni topshirishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.3. Kompaniya ushbu Qoidalarining 6.1.-bandiga muvofiq sovrinlarni G'olib tomonidan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 90 (to'qson) kalendar kun ichida berish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7. TEXNIK NOSOZLIKLAR VA FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Aksiyaning to'g'ri o'tkazilishiga to'sqinlik qiladigan texnik nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tashkilotchi texnik muammolar bartaraf etilgunga qadar Aksiyani to'xtatib turish huquqiga ega, bunda ishtirokchilarni albatta xabardor qilinishi shart.

7.2. Tashkilotchi uchinchi shaxslarning aybi yoki fors-major holatlari sababli yuzaga kelgan texnik nosozliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

7.3. Moddiy sovrinda nuqsonlar yoki boshqa zavod nosozliklari aniqlangan taqdirda, G'olib mukofot topshirilgan va G'olib o'tkazmani qabul qilish dalolatnomasini imzolagan paytdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida Kompaniyaning bosh ofisiga murojaat qilishi zarur. G'olibning yutuq uchun belgilangan foydalanish yoki saqlash qoidalarini buzishi yoki uchinchi shaxslarning harakatlari yoki fors-major holatlari tufayli yutuq G'olibga topshirilgandan keyin yuzaga kelgan kamchiliklar uchun Kompaniya javobgar bo'lmaydi.

8. TASHKILOTCHINING JAVOBGARLIGINI CHEKLASH

8.1. Ishtirokchilar sovrinlarni olish uchun hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortsalar, Tashkilotchi bilan bog'lanmasalar yoki belgilangan muddatda aloqaga chiqmasalar, Tashkilotchi buning uchun javobgar hisoblanmaydi.

8.2. Tashkilotchi sovrinlar soni va nomini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bunda o'zgarishlar haqida ishtirokchilarni kamida 7 kun oldin hambi ilovasida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali xabardor qiladi.

9. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH

9.1. Rag'batlantiruvchi Tadbirda ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini tasdiqlaydi.

9.2. Tashkilotchi ishtirokchining quyidagi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlaydi:

- FISH
- mobil telefon raqami
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari (faqat moddiy sovrinlarni olish uchun)

9.3. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga berilgan rozilikni Ishtirokchi Tashkilotchiga yozma xabarnoma yuborish orqali bekor qilishi mumkin.

9.4. Shaxsiy ma'lumotlar faqat Rag'batlantiruvchi Tadbirni o'tkazish maqsadida qayta ishlanadi va shaxsga doir ma'lumotlar subyekting rozilgisiz uchinchi shaxslarga berilmaydi.

10. SHIKOYATLAR VA NIZOLI HOLATLARNI KO‘RIB CHIQISH

10.1. Ishtirokchilar Tashkilotchiga yozma murojaat va shikoyatlarni Telegram orqali yuborishga haqli: @BeelineUz_HelpBot

10.2. Tashkilotchi ishtirokchilarning murojaatlarini qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqadi.

10.3. Murojaatga javob ishtirokchiga yozma yoki elektron shaklda yuboriladi.

11. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Tashkilotchi Rag‘batlantiruvchi Tadbir Qoidalarini o‘zgartirish huquqiga ega bo‘lib, bunday o‘zgarishlar kuchga kirishidan kamida 3 kun oldin tegishli ma’lumotlarni hambi ilovasida joylashtirishi shart.

11.2. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha holatlarda Tashkilotchi va Ishtirokchilar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.

11.3. Rag‘batlantiruvchi Tadbirni o‘tkazish bilan bog‘liq yuzaga keladigan nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko‘rib chiqiladi.

11.4. Rag‘batlantiruvchi Tadbirda ishtirok etish ushbu Qoidalariga to‘liq rozilik berishni anglatadi.

LIME-TIME aksiyasi Qoidalariga ilova

TEXNIK CHEKLOVLAR VA SOVRINLARDAN FOYDALANISH SHARTLARI

1. INTERNET-PAKETLAR BO‘YICHA CHEKLOVLAR

1.1. O‘zaro istisno qiluvchi paketlar: Quyidagi paketlar bir-birini istisno qiladi va bir vaqtning o‘zida faollashtirilishi mumkin emas:

- Avtouzaytiriladigan Unlim
- 20% chegirmali avtouzaytiriladigan Unlim
- 30% chegirmali avtouzaytiriladigan Unlim

1.2. Faollashtirish shartlari:

- Yuqorida keltirilgan paketlardan faqat bittasi bir vaqtning o‘zida faol bo‘lishi mumkin.
- Yangi paketni ulashdan avval amaldagi paketni o‘chirish kerak (*110*909#).
- Amaldagi cheksiz paket o‘chirilsa, uning amal qilish muddati to‘xtatiladi va internetdan foydalanish belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu cheklovlar LIME-TIME aksiyasi Qoidalarining ajralmas qismi hisoblanadi va barcha ishtirokchilar tomonidan bajarilishi shart.

1.3. Tarif turkumlari bo‘yicha cheklovlar: Avtouzaytiriladigan cheksiz internet-paketlar quyidagi tarif turkumlarida amal qilmaydi: “Status+” TT, “XIT” va “XIT+” TT, “ProInternet” TT, “BeeHome” TT, “Erkin muloqot”, “Erkin muloqot MAXI”, “Bir Oy”, “Bravo MIX”,

“Bolajon”, “Click+”, “G‘alaba!”, “Silver”, “Gold”, “Platinum”, “Bayramga marhamat”, “Kunlik”.

1.4. “Oddiy” tarifi doirasida “Oila” guruhi ishtirokchilari uchun “Oila” tarifi bo‘yicha taqdim etilgan trafik birinchi navbatda sarflanadi. Boshqa paketlar va bonuslar bo‘yicha taqdim etilgan trafik faqat asosiy trafik tugaganidan so‘ng sarflanadi.